

**TA'LIM BOSHQA TILLARDA OLIB BORILADIGAN SINFLARDA
O'ZBEK TILINI O'QITISHDA SINEKTIKA MODELIDAN FOYDALANISH**

Xummedova O'g'ilnavot Mavlanberdiyevna

Nukus davlat pedagogika instituti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Sinektika ijodkorona fikrlash modeli. Sinektika modelini dars jarayonida qo'llashni, ushbu model orqali o'quvchilarni ijodiy fikrlashni yuksaltirishni, o'zbek tili darsligida modeldan foydalanishning samaralarni ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: interfaol metodlar, zamonaviy texnologiyalar, sinektika modeli

Bugungi kunda respublikamizda yashovchi turli millatlar vakillarining davlat tilini o'rganishi jamiyatimizda muhim ijtimoiy talablardan biriga aylandi. Bu respublikamizda o'zbek tili ta'limini takomillashtirishning yangi konseptual yondashuvlari va tamoyillarini belgilab olish, ta'lim samaradorligini oshirishning eng ilg'or metodlarini aniqlash va ulardan unumli foydalanish masalasini kun tartibiga qo'yilmoqda. Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitishdan asosiy maqsad ta'lim oluvchilarning nutqini shakllantirish, ya'ni o'zbek tilida aytilayotgan so'zlar va gaplarni tinglab tushunish hamda so'zlay olishga o'rgatishdan iborat. Buning uchun bilimlarni taqdim etishning ixcham, kompakt modellarini yaratish, o'quv-biluv materiallarini zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o'quvchilar ongiga oson va puxta singdirish mexanizmini ishlab chiqish kerak bo'ladi. Darsni interfaol metodlardan foydalanib, yuqori natijaga erishish mumkin. Darsning maqsadi: zamonaviy ta'limning mohiyatini ochib berish, pedagog faoliyatini keng qamrovli yoritish. Darsning samaradorligini hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida

qo'llashga bo'lgan qiziqishini orttirish, e'tiborning kundan kunga kuchayib borilishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

O'zbek tilini o'rganishning zamonaviy modellardan biri sinektikadir. Sinektika – ijodkorona o'ylash modeli bo'lib, ko'rinishidan turlicha bo'lgan hodisa va predmetlarni o'zaro bog'liklikda o'rganish hisoblanadi. "Sinektika" - turli xil analogiya turlaridan keng foydalanadigan bir guruh mutaxassislar tomonidan ixtirochilik muammolarini hal qilish usuli. Bu usul 1952 yilda V. Gordon (AQSh) tomonidan taklif qilingan. U mulkka asoslangan inson miyasi so'zlar, tushunchalar, hislar, fikrlar, taassurotlar o'rtasida bog'lanish o'rnatish, ya'ni assotsiativ aloqalarni o'rnatish. Bu bitta so'z, kuzatish va boshqalar ongda oldingi tajribali fikrlarni, hislarni qayta ishlab chiqarishga olib kelishi va muammoni hal qilish uchun o'tmishdagi tajribadan boy ma'lumotlarni "o'z ichiga olishi" mumkinligiga olib keladi. Uning asosiy vositasi analog yoki metafora bo'lib, bu model kichik guruhlarda biror muammoga yechim topishda kreativ javoblar topishning takomillashtirilishiga imkon beradi. Bunda yangi ma'lumotga ega bo'linadi, yangi yechim topish uchun motivatsiya hosil qilinadi, muammoning turli sabablari kashf qilinadi. Bu usul uning foydalanuvchilariga miyada mavjud turli "qoliplar"dan chiqishga va mavhum tushunchalarni ham anglashga yordam beradi. Sinektika modelidan an'anaviy modellardan zerikkan barcha yoshdagi hamda barcha soha vakillari tomonidan foydalanishi mumkin. Sinektika o'quvchilarning ijodkorligi faollashtiruvchi instruktiv model, u talabalarga eski fikrlarni yangicha yo'l bilan bir necha hodisalar bilan bog'lashga turtki beradi. Garchi ba'zi o'quvchilar

boshqalariga nisbatan ijodkorroq bo'lsalar ham, sinektika modeli har bir o'quvchida “creative thinker” - “ijodkor o'ylovchi, ijodiy fikrlovchi”ni uyg'ota oladi. Bu modeldan asosan yuqori sinflarda foydalana olsak bo'ladi.

Sinektika modelidan foydalanib nimalarga erishishimiz mumkin:

- O'quvchilarni erkin fikrlashga unday olamiz va sharoit yaratgan bo'lamiz;
- Og'zaki nutqini baholay olish imkoni vujudga keladi;
- Og'zaki nutqini rivojlantiradi;
- O'quvchining fikri qanday ekanligini, uning fikrlash qobiliyati, g'oyalari qay darajada ekanligini aniqlaymiz;
- O'quvchilar bir-biri bilan fikr almashish imkoniga ega bo'ladi;
- Haqiqiy bahslashish maydonini yaratish mumkin, ya'ni har bir o'quvchining yechimni topa olishi har xilligidan maydonga tashlangan muammo har xil ko'rinishda yechib bera olishlari mumkin;
- O'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida do'stlik munosabati ham vujudga keladi;

Bularning barchasi sinektika modelining samaralaridir. Bu usulni faqat og'zaki nutqni rivojlantirish uchungina foydalana olsak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Mahmudov N., To'xliiev B. O'zbek tilini o'rganamiz, rasmi lug'at. — T.:Ukdguvchi, 1991.
- <https://tltaudit.ru>
- Nazarova S. O'zbek tilini o'qitish metodikasi.-T:“O'qituvchi”, 1992